



MUSIQA FANINING MAKTABGACHAGA YOSHDAGI BOLANING RUHIYATIGA TASIR

Rahmatullayeva Shahnoza

*Namangan davlat pedagogika ishtituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Musiqa ta'lim yo'nalishi 1-
bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa fanining maktabgacha yoshdagi bolalar hayotidagi o'рни, ularning ma'naviy-axloqiy, intellektual va ijtimoiy shakllanishidagi ahamiyati yoritilgan. Musiqa tarbiyasining bola ruhiyatiga ta'siri Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar hamda zamonaviy pedagogik qarashlar asosida tahlil qilingan. Maqolada musiqiy ohanglar orqali bolalarda milliy o'zlikni anglash, hissiy intellektni rivojlantirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari muhokama etiladi. Shuningdek, musiqa rahbari va pedagogik jamoaning bolalarni san'atga qiziqtirishdagi roli va mas'uliyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa tarbiyasi, maktabgacha ta'lim, ruhiyat, ma'naviy kamolot, hissiy intellekt, milliy o'zlik, Abu Nasr Forobiy, ijtimoiy moslashuv, estetik did.

Maqolada Musiqa fani bolaning dastlabki shaxs sifatida shakllanishi, uning ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishida eng muhim bosqich ekanligi haqida so'z yuritiladi, shu bilan birga bolalarni Musiqa faniga qiziqtirish, ularning musiqiy qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va rivojlantirish va bunda musiqaning ruhiyat bilan bo'g'liqligi muhokama qilinadi. Musiqa nafas tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonlarni go'zal narsalarni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi, insonni yuksak did bilan qalb go'zalligi bilan qurollantiradi va insonga ma'naviy ozuqa beradi. Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi san'atdir, u hissiyotlar va yuqori kayfiyat holatlarini shakllantiradi. Abu Nasr Forobiy bolalarni axloqli, nazokatli qilib tarbiyalashda Musiqa bilimining ahamiyati haqida shunday deydi: "Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, u tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatli bo'lganlarni muvozanatini uzoq muddatga saqlaydi; Musiqa har qanday ruhiyatni davolaydi, uning so'zlarining ta'siri bilan ruhiy quvvatlar uyg'unlashadi va tartibga, muvozanatga keladi".

Zero, insonning dunyoqarashi, tarbiyasi, o'zligiga hurmati, ma'naviy mezonlari aynan ilk yosh davridanoq shakllanadi, ayniqsa maktabgacha yosh davri bolalarda hissiy sezuvchanlik yuqori darajada bo'lib, musiqa ularning ruhiy holatini muvozanatlashtiradi, shu sababdan maktabgacha ta'limda musiqa fanining pedagogik talablar bilan uyg'un holda joriy qilishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib shunday deganlar: "Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir, faqat musiqagina insonlarning qalbiga tiniqlik, xotirjamlik o'z-o'zidan quvnoqlik tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi". Shunday ekan, musiqa bolalarning hissiyotlarini uyg'otishini, ularning tasavvurlarini kengaytirishini va nutqni rivojlantirishini unutmasligimiz kerak, chunki bolalar musiqa orqali qo'shiqlarni, kuylarni, musiqiy



o'yinlarni anglashni va ifodalashni o'rganadilar. Masalan, quvnoq kuylar bolalarda ijobiy kayfiyatni uyg'otsa, sokin kuylar tinchlanishlariga yordam beradi, buni ilk yoshligimizda onalarimiz tomonidan eshitilgan allalarimizda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda Vasiliy Osipovich Klyuchevskiyning musiqa haqidagi qarashlarini ham ko'rib o'tishimiz mumkin, u o'z asarlarida musiqaning depressiya va hayotiy qiyinchiliklarni yengishga yordam beruvchi vosita sifatida ta'riflab, uning insonga hayotga bo'lgan ishtiyoqni qayta tiklash qudratiga ega ekanligini alohida uqtirgan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa mashg'ulotlari bolaning miya faoliyatini faollashtirib, unda mantiqiy fikrlash va matematik qobiliyatlarni uyg'otadi, chunki musiqiy ritmlar va intervallar ma'lum bir matematik qonuniyatlarga asoslanadi. Bola musiqa tinglaganda uning nafaqat eshitish a'zolari, balki butun asab tizimi harakatga keladi, bu esa o'z navbatida xotirani mustahkamlashga va diqqatni jamlashga xizmat qiladi.

Musiqa tarbiyasi jarayonida bolaning ijodiy tasavvuri shakllanadi, u turli ohanglar orqali tabiat hodisalarini, hayvonlar dunyosini va insoniy tuyg'ularni tasvirlashni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishida musiqani ongli ravishda idrok etish ko'zda tutiladi, musiqa mashg'ulotlari jarayonida bolalar hayotiy voqealikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar, ularning yoshiga mos musiqiy asarlar bolalarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Xitoylik mutafakkir Sun Tzin fikricha: "Musiqa donishmandlar uchun quvonch manbai bo'lib, xalq ongiga ta'sir o'tkazish, unda ezgu g'oyalarni uyg'otish va hatto jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni hamda urf-odatlarini takomillashtirish qudratiga egadir". Musiqa bolalar ongiga va ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi, ilk yoshlardayoq bolalarga musiqa tinglab tinchlanishi, hatto orom olishi ham musiqaning ruhiyat bilan bog'liq ekanligini anglatadi. Musiqaning maktabgacha ta'limlarda, hatto eng kichik guruhlarda ham o'tilishi o'zining ijobiy natijasini beradi, chunki musiqa mashg'ulotlarida bolalar jamoada ishlash, o'zaro muloqot qilish, guruh bo'lib qo'shiq kuylash, musiqali o'yinlar o'ynash kabi do'stona munosabatlarni shakllantiradi.

Bolalarning musiqiy didini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan keng foydalanish ularning o'z ildizlariga bo'lgan muhabbatini oshiradi, milliy qo'shiqlar va kuylar orqali bolalar xalq madaniyati, urf-odatlar va an'analar bilan tanishadilar hamda milliy o'zlikni anglaydilar. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, musiqa mashg'ulotlari bolalarda irodani ham mustahkamlaydi, chunki murakkab ritmlarni o'zlashtirish yoki cholg'u asbobini chalishni o'rganish boladan sabr-toqat va quntini talab qiladi. Bundan tashqari, musiqa orqali bolalarda ma'naviy mustahkamlik, o'zligini anglash va milliy iftixor, musiqaga hurmat hamda yuksaklikka intilish kabi sifatlar shakllanadi, bu esa kelajakda barkamol, vatanparvar, olijanob va yurtparvar avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Musiqa bilan muntazam shug'ullangan bolalarda estetik madaniyat shakllanadi, ular xunuklik va go'zallikni, yovuzlik va ezgulikni farqlashni o'rganadilar, bu esa jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit yaratishning garovidir.

Mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy ham bolalarning yoshligidan musiqa bilan shug'ullanishi ularning aqliy kamolotiga ijobiy ta'sir etishini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, musiqa fani boladagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarishda eng samarali yo'ldir, chunki har bir bola tabiatan musiqiydir, faqatgina uni to'g'ri yo'naltirish ustozning mahoratiga bog'liq.



Xulosa qilib aytganda, Musiqa fani orqali bolalarda sog'lom, ijodkor va har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash mumkin, bu esa bizning yorqin kelajagimiz demakdir. Bolalarni musiqa qiziqtirish avvalo musiqa ustoziga, musiqa rahbariga va pedagogik jamoaga ham bog'liq ekanini unutmasligimiz kerak, ular mashg'ulot jarayonlarida bolalarga musiqa ohanglari yordamida kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni yetkaza olishlari kerak. Musiqa fani maktabgacha yoshdagi bolalarning nafaqat badiiy didini, balki ularning jismoniy rivojlanishini ham ta'minlaydi, masalan ritmik harakatlar va raqslar bolaning qomatini to'g'ri shakllanishiga va harakatlar koordinatsiyasini yaxshilanishiga yordam beradi. Musiqa fani maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi va har bir ota-ona hamda tarbiyachi musiqa qudratidan bolani komil inson qilib voyaga yetkazishda samarali foydalanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. JournalNX, 6(05), 7-9.
2. Gaziye, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 215-217).
3. Gaziye, J. J., & Toshmatov, G. O. (2021). Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 467-472.
4. Gaziye, J. J., & Aliyeva, N. R. (2021). Dmitriy dmitrievich shostakovich life and work. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1181-1185.
5. Joraxanovich, G. J. (2023). Psychological Factors Of Musical Education. JournalNX, 9(11), 8-10.
6. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MILLIY MUSIQA-XALQ MADANIYATINING MA'NAVIY KO 'ZGUSI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 8(10), 107-109.
7. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MUSIQA O 'QITUVCHILAR DARSLARDA ILG 'OR TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO 'NIKMALARI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 8(9), 90-94.
8. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MUSIQA SAVODXONLIGI TUSHUNCHASI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(36), 220-224.
9. Qodir o'g'li, M. S. (2025). INNOVATION TECHNOLOGICAL TUSHUNCHASI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(32), 87-91.
10. Qodir o'g'li, M. S. (2024). INNOVATION TECHNOLOGICAL VA ULARNING MUSIQA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(28), 68-71.



11. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MILLIY MUSIQA-XALQ MADANIYATINING MA'NAVIY KO 'ZGUSI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 8(10), 107-109.

12. Sobirova, M. (2020). The role of the family in the development of the integration process in science and education. JournalNX, 1137-1142.